

9-sinf O'zbekiston tarixi

4-dars: XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

Darsning maqsadlari:

1. Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga yer egaligi va soliq tizimi, XIX asrda O'rta Osiyo xonliklaridagi davlatlar, katta yer egalari, dehqonlarning yer egalari qo'lida ishlashi, sug'orish tizimi va tartiblari, Amudaryo, Sirdaryo suvlari kanallar qazib, to'g'onlar qurilib ekin maydonlariga yetkazilganligi, hunarmandchilik va savdo-sotiq, O'rta Osiyo savdogarlari Eron, Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Rossiya davlatlari va qozoq juzlari bilan savdo-sotiq aloqalari haqida umumiy ma'lumot va tushunchalar berish.

Tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

Mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini, tarixiy shaxslar haqida, tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi hamda mazkur davrga oid tarixiy joylarni tarixiy xaritadan ko'rsata oladi, ma'lumot bera oladi.

2. Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarni yangi bilimlar egallashga va tartib-intizomga doimo rioya etishga yo'naltirish hamda ularda ona Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

O'quvchilarda yer egaligi munosabatlari, dehqonchilik va savdo-sotiq haqida tasavvur hosil qilish;

O'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;

Ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad:

Shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

Inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shartsharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalana olish;

O'quvchilarning soliqlar va ularning ahamiyati to'g'risidagi bilimlarini rivojlantirish;

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;

O'quvchilarda umumlashma xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish;

O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	Yangi bilim beruvchi, bilimlarni shakllantiruvchi
Dars metodi:	"Interfaol metodlar", "Guruhlarda ishlash", "Kim tez topadi" o'yini
Dars jihozi:	darslik, xarita, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT

DARSNING BLOK CHIZMASI:

No	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash, yangi mavzu bilan bog'lash	8 daqiqa
3	Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish	Yangi mavzuni tushuntirish	14 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	Dars yakuni va baholash	G'olib guruhni aniqlash, rag'batlantirish. Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	2 daqiqa



Yangi dars mazmunining tayanch tushunchalari, atamalari, tarixiy sana va nomlar:

Yer egaligi, soliqlar, davlat yerlari, mulki-xolis, vaqf, xiroj, chig'irlar, hunarmandchilik, savdo-sotiq.

DARSNING BOBISHI

I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish.

O'qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma'lumot berib o'tiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:

“Guruhlarda ishlash”



O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uyga berilgan mavzuga oid atamalardan o'z guruhlariga nom qo'yib olishadi hamda guruhga qo'yilgan nomga qisqacha ta'rif berishadi.

1-topshiriq: «Kim tez topadi» o'yini:

- Buxoro amirligida oliy davlat hukmdori kim? (Amir)
- Buxoro amirligida hokimiyat qaysi sulola qo'lida bo'lgan? (Mang'itlar)
- Amirlikda ma'naviy markaz qaysi shahar bo'lgan va uni kim boshqargan? (Buxoro shahri, qushbegi)
- Amirlikda markaziy hokimiyatni kim boshqargan? (Qushbegi)
- Amirlikda soliq yig'imlarini hisobga oluvchi amaldor kim? (Mushrif)
- Ariza va shikoyatlarni qabul qiluvchi kim? (Dodhoh)
- Amir farmonlarini e'lon qiluvchi mansabdor kim? (Parvonachi)
- Diniy-huquqiy masalalarni hal qiluvchi mansabdor shaxs kim? (Shayxulislom)
- Valiahd tarbiyachisi kim? (Otalik)

2-topshiriq: Guruhlarga o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi savollar beriladi:

1-GURUHGA: *Xiva xonligidagi davlat mansablarini ayting.*

2-GURUHGA: *Qo'qon xonligining davlat boshqaruvi haqida gapiring.*

3-GURUHGA: *Xonliklarda sud ishlari kimlarning qo'lida bo'lgan?*

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish:

Bu vazifa quyidagi reja asosida amalga oshiriladi:

1. **Yer egaligi va soliq tizimi;**
2. **Sug'orish tizimi va tartiblari;**
3. **Hunarmandchilik va savdo-sotiq**

Yer egaligi va soliq tizimi



Yerga ishlov berish

XIX asrda O'rta Osiyo xonliklari agrar davlatlar edi. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yerga egalik tartiblari qandayligi, to'lanadigan soliq va to'lovlarining miqdori bilan belgilangan. Bu davrda yerlarning asosiy qismi, ayniqsa, ekin maydonlari xon, uning qarindosh va yaqinlari hamda bir qancha katta yer egalari qo'lida bo'lgan. Aholining aksariyati katta yer egalari tegishli ekin maydonlarida mehnat qilib, ijaraga olgan yerlari uchun hosilning bir qismi (ko'p hollarda hosilning 1/5 yoki 1/3 qismi)ni **xiroj** sifatida to'Maganlar.

Xiva xonligida ijaraga yer olgan dehqonlar **yarimchi** deb atalgan. Chunki ular olingan hosilning yarmini ijara haqi qilib to'lagan. Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida yerga egalik qilish shakllari deyarli bir xil edi. Ular uch turdagi yer egaligidan iborat bo'lib, **amllok** davlat yerlari, **mulk** xususiy yerlar, shuningdek, masjid va madrasalar, diniy muassasalarga qarashli **vaqf yerlari** hisoblangan. Xonliklardagi yirik amaldorlar, harbiy sarkardalarga davlat tomonidan yerlar in'om etilgan. Vaqf



yerlaridan olinadigan foydaning hisob-kitobi va taqsimoti bilan *mutavalli* shug'ullangan. Aholi soliq va to'lovlarni mahsulot yoki pul ko'rinishida to'lagan. Bundan tashqari sug'orish inshootlari, yo'llar, ko'priklar qurish va ularni ta'mirlash kabi ishlarni majburiyat tarzida bajarganlar. Mehnat majburiyati aholining ishlab berishi bo'lib, u *begar* deb ham nomlangan.

Bu davrda aholidan *xiroj, zakot, suv, tegirmon, tuz, mulk, tomorqa, bog' solig'i* va boshqa soliqlar yig'ilgan. Xiva xonligida asosiy soliq *solg'ut* deb atalgan. Harbiy majburiyatda har bir erkak kishi oziq-ovqati, qurol-aslahasi bilan birga qatnashishi kerak bo'lgan. Chorvador aholi chorva mollaridan *zakot* solig'i, yaylov va suvdan foydalangani uchun ham soliqlar to'lagan. Shaharlar aholisi - hunarmand va savdogarlardan *savdo puli, do'kon puli, tarozi puli* kabi soliqlar olingan.

Sug'orish tizimi va tartiblari



Chig'irlar

O'rta Osiyo hududi va lining iqlimi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga qulay bo'lgan. Bu soha taraqqiyoti sug'orish ishlariningholati va suv ta'mino-ting qay darajada ekanligiga bog'liq edi. Shuning uchun ham sug'orish va suv ta'minoti sohasi O'rta Osiyoda muhim hamda davlat ahamiyati darajasiga ko'tarilgan. Qolaversa, xazinaga tushadigan asosiy daromadni dehqonlardan yig'iladigan soliqlar tashkil qilgan.

Har bir hududda aholi va ma'muriyat vakillari sug'orish sohasiga mas'ul va javobgar bo'lgan. Sug'orish ishlarini yuritish va nazorat qilish bilan bu sohaning mutaxassislari - *miroblar* shug'ullanganlar. Ular sug'orish ishlari, suv inshootlarining qurilishi, ta'minoti, ta'mirlanishi, tozalanishi, suv taqsimotini yaxshi bilgan kishilar bo'lgan. O'rta Osiyoda sug'orish tizimi qadimdan rivojlanib kelgan soha hisoblanadi. Mazkur ishlar, asosan, hashar yo'li bilan bajarilgan

Aholisi, asosan, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan Farg'ona vodiysida sug'orish tizimiga katta e'tibor qaratilgan. Vodiy hududida yirik sug'orish inshootlari - Shahrixonsoy, Andijonsoy, Marg'ilonsoy, Yangiariq, Ulug'nor, Qoradaryo kabilar bo'lgan. Suv chiqishi qiyin bo'lgan joylarga maxsus qurilmalar *chig'irlar* yordamida suv chiqarilgan. Amudaryo, Sirdaryo suvlari turli sun'iy sug'orish tizimlari kanallar hamda uning bo'ylariga qurilgan to'g'onlar orqali ekin maydonlariga yetkazilgan. Bu hududda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, asosan, paxta va donli ekinlar tashkil qilgan. Bundan tashqari bog'dorchilik, uzumchilik, poliz va sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan.

Hunarmandchilik va savdo-sotiq



XIX asrda Chorsu bozori. Toshkent

O'rta Osiyo xalqlari hayotida hunarmandchilik muhim o'rin egallab, aholining dehqonchilik, chorvachilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan qatlami hayoti ham bevosita hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lgan. Chunki har bir dehqon va chorvador hunarmandchilik buyumlaridan foydalangan holda mehnat qilgan, ayni vaqtda ular hunarmandchilikning turli sohalariga uchun xomashyo yetkazib bergan. Savdogarlar esa hunarmandchilik mahsulotlari bilan savdo-sotiq qilgan. O'rta Osiyo davlatlarida ko'plab hunarmandchilik markazlari mavjud bo'lib, ular mahalliy xususiyatlariga ko'ra turli hunarmandchilik sohalariga ixtisoslashgan. Masalan, Marg'ilonda atlas to'qish, do'ppichilik, Rishtonda kulolchilik, Shahrixonda pichoqchilik, do'ppichilik, duradgorlik, Chustda ham do'ppichilik, pichoqchilik, Qo'qonda temirchilik, duradgorlik, zargarlik, Buxoroda zargarlik, Samarqandda zargarlik, Xivada

me'morchilik, ganchkorlik rivojlangan. Buxoro amirligida bu davrda kulolchilik, temirchilik, miskarlik, zardo'zlik, shishasozlik, kandakorlik, badiiy kashtachilik sohalariga ham keng tarqalgan. Xonliklarda temir mahsulotlariga ehtiyoj katta bo'lganligi bois metallga ishlov beruvchi mahalliy temirchilik sohasi rivojlangan. Hunarmandlar tomonidan, asosan, mehnat qurollari, xususan, dehqonchilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar, kiyim-kechaklar, zeb-ziyonatlar, idish-lovoqlar, chorvadorlar foydalanadigan buyumlar tayyorlangan.

O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida azaldan hunarmandlarga hurmat bilan qaralgan, hunar egallash va bu kasbga munosib bo'lish yaxshi fazilat hisoblangan. Xalq orasida «Hunardan unar», «Yigit kishiga qirq hunar ham oz», «Hunari bor kishi xor bo'lmas» kabi hikmatli so'zlar bejiz tarqahnagan.

Hunarmandchilik xonadon va kasanachilik ko'rinishidagi mayda ustaxonalardan iborat bo'lib, unda, asosan, qo'l mehnatidan foydalanilgan. Hunarmandchilik mahsulotlari mahalliy aholi ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, balki savdogarlar tomonidan chetga ham olib borilgan. O'rta Osiyo savdogarlari Eron, Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Rossiya davlatlari va qozoq juzlari bilan savdo-sotiq qilganlar. Xorijda hunarmandlarning zargarlik mahsulotlari, shoyi va atlas matolari, kulolchilik buyumlari yuqori baholangan.

Bu davrda O'rta Osiyodagi ichki va tashqi savdoning yanada jadal rivojlanishiga uchta davlat o'rtasidagi kelishmovchiliklar, ichki nizolar va notinchiliklar salbiy ta'sir ko'rsatgan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Darsning bu bosqichi quyidagi savol-topshiriqlar yozilgan kartochkalarni o'quvchilarga (guruhlariga) tarqatish orqali bajariladi:

1-topshiriq: "Aqliy hujum" metodi. Guruhlarga o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi



savollar beriladi:

1. Xonliklardagi majburiyatlar xalq ommasiga qanday ta'sir qilgan?
2. Xonliklarda hunarmandchilikning qaysi turlari keng tarqalgan?
3. Xonliklar qaysi davlatlar bilan savdo aloqalarini olib borgan?

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

V. Dars yakunlarini chiqarish:



Yakunlarni chiqaramiz!

- ▶ O'rta Osiyoda yer egaligining uch turi mavjud bo'lgan. Aholi zimmasida ko'p turdagi soliqlar va majburiyatlar bo'lgan.
- ▶ O'rta Osiyoda qadimdan ko'p tarmoqli hunarmandchilik rivojlangan.
- ▶ Savdogarlar mahalliy mahsulotlarni chetga olib borib, u yerlardan zarur mollarni olib kelgan.



O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish;
Baholarni e'lon qilish.

O'quvchilar aytib o'tgan fikrlari to'planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so'nggi xulosasi chiqariladi

VI. Uyga vazifa:



Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob topish.

Rasmlar orqali bayon etib kelish.

Kelgusi darsda o'tiladigan mavzu bilan tanishib kelish, asosiy tushunchalarni eslab qolish, qo'shimcha manbalarni izlab topish.

MUSTAQIL ISH

O'rta Osiyo davlatlarida joriy etilgan soliqlar jadvalini to'ldiring.

Xiva xonligi	Buxoro amirligi	Qo'qon xonligi



Kelgusi yilda o'zgartirish kiritilsa yoki internetdan olingan yangiliklar bo'lsa yoziladi:

